

ABDULLA ORIPOV TO'RTLIKARIDA FALSAFIY QARASHLAR

Ravshonbekova Gulmira

Urganch davlat universiteti Filologiya va san'at fakulteti o'zbek tili ta'lif yo'nalishi 2-bosqich talabasi

ARTICLE INFO.

Kalit so'zlar: Abdulla Oripov, ijod, shoir, falsafa.

Annotatsiya

Ushbu maqolada yurt qahramoni bo'lmish Abdulla Oripov ijodining o'ziga xosligi, uning falsafiy qarashlari hamda donishmandlikka yo'g'rilgan ijodi tahlil etiladi.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl> © 2024 LWAB.

Abdulla Oripovning shoir sifatidagi adabiy fenomenini qaysidir ma'noda chuqur lirik pafos bilan yo'g'irilgan hikmatlar namoyon qiladi. Abdulla Oripov she'riyati shunday ulkan adabiy-estetik, ruhiy-psixologik, ijtimoiy-falsafiy tushuncha va hodisalar ortidan buniyod bo'lgan she'riyatdir. Bu she'riyat – haqiqiy iste'dod egasining ko'ngli, tafakkuri va tasavvuri hosilasidir. Shoirning ayrim she'rlari ixchamligi, hikmatlarga yo'g'irilgani bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Odam ko'nglidagi, yuragi tubidagi, aytishi lozim, zarur va shart bo'lgan ichki tuyg'ularini shoir she'rqa soladi.

“Yaxshilarni o'tqaz uyning to'riga,

Tan ber, insonlarning asl – zo'riga.

Va lekin hech qachon topshira ko'rma,

Dononi nodonga, qo'yni bo'riga”.

“Qadr” deb nomlangan bu to'rtlik nasihatga ohangi bor, hikmat va haqiqat bilan uyg'un keladi. Dastlabki ikki misra tasdiq, tezis shaklida kelsa, uchinchi qator antitezis vazifasini o'taydi. To'rtinchi misra esa ularni jamlab, hayotiy-falsafiy fikrni tuganchiga yetkazadi. Aynan o'sha oxirgi misra ham dono bilan nodon, qo'y bilan bo'ri tarzida zidlashtiriladi. Ziddiyat – hayot qonuni, qarshilik – fizikaviy hodisa.

“Nochorning ustidan kulma hech qachon,

Bilmasdan kamsitma, boyvachcha o'g'lon.

Topgan aqchasiga non olgaydir u,

Keksa onasiga yo dori-darmon”.

Shoir ushbu to'rtligi orqali insonlarni kamtar bo'lishga, nochor insonlarning ustidan kulmaslikka, ularga hamisha yordam qo'lini cho'zishga da'vat etmoqda. She'rni yana tahlil etadigan bo'lsak “nochor” va “boyvachcha” so'zлari zidlangan.

Abdulla Oripovning har bir she'rida hikmat, o'ziga xos hayot falsafasi bor. Muallim to'g'risida yozib, u zoti sharifni “hayot ganjida durri bebah” deb ta'riflaydi. Oripov “Shoir umri” to'g'risida yozib: ‘Oh, shoir umriga havas qilmagil, U quyun ichida ungan bir daraxt” degan o'xshatishni taqdim etadi.

“Dunyo degan shundayin anglab bo‘lmas sir ekan”, deydi mashhur bir she’rida. Ammo A.Oripov dunyodagi juda ko‘p sirlarni anglagan va o‘z she’rlari vositasida ulkan hayotiy hikmatlarni anglatgan alloma shoirdir. Yaxshi she’rdan yaxshi fikr tug‘iladi. Bular shoir ijodi to‘g‘risidagi ayrim mulohazalar, xolos.

‘Uyg‘unlik’ she’rida olam hodisalari va odamga shoirning falsafiy munosabati ko‘zga tashlanadi. Ochun hodisalari orasidagi ichki mutanosiblik haqida o‘ylagan shoir:

*“Olam uyg‘unlikdan iborat asli,
Bo‘shliq deganlari yo‘qdir mutlaqo,
Makonni nimadir to‘ldirib turar.
Suvsiz idishda ham zangor havo bor,
Qop-qaro koinot bag‘rida esa,
Vaqt yashar, jismsiz ruhlar kezadi”*

tarzidagi to‘xtamga keladi. Xorezmatik fikrlaydigan shoir uyg‘unlikni xilma-xillik va o‘ziga xoslikning birligida ko‘radi. Har bitta odamga o‘z millati betimsol, tili tansiq, vatani muqaddas tuyilishi sababini uyg‘unlik tuyg‘usi bilan izohlaydi.

Abdulla Oripov faylasuf shoir sifatida el e’tiborini qozondi. U Fitrat, Cho‘lpon, Hamza, G‘afur G‘ulom, Oybek, Hamid Olimjon, Maqsud Shayxzoda, Mirtemir singari salaflarnikidan boshqacharoq, ularnikidan balandroq she’riyat taqdim etib, haqiqiy shoir faylasuf, donishmand bo‘lishini namoyon qildi. U adabiyotga “Mitti yulduz” deb nomlangan yupqagina she’riy to‘plami bilan kirib keldi va birdaniga o‘zbek adabiyotining porloq yulduziga aylandi. U har bir she’rida boshqalarning gapi, har qancha mazmundor bo‘lmasin, shoirning so‘ziga teng kelmasligi, unikidek ta’sir kuchiga ega bo‘lmasligiga barchani ishontirdi. “Mitti yulduz” muallifining she’rlari asl shoirning so‘zları ta’siri hech qachon so‘nmasligi, uning yuksak she’riyati uchun makon va zamon chegaralari ahamiyatsiz ekanligi dalil bo‘lib turibdi.

Abdulla Oripovning she’rlari boshqa shoirlarnikidan teran falsafiy fikrga ega ekani bilan farq qiladi hamda o‘zining shu jihat bilan ulardan ustun turadi. “Mitti yulduz” to‘plami muallif fikrlari ezgulik va yovuzlik, mehr va qahr, quvonch va qayg‘u, havas va hasad kabi bir-biriga zid narsa-hodisalarni chog‘ishtirish, ular o‘rtasidagi aloqadorlikni ko‘rsatishga asoslanadi. Ushbu o‘ziga xos estetik shakl uning she’rlari ta’sirchanligini oshirish barobarida, ulardagи falsafiy fikrni bo‘rttirib ko‘rsatadi. Shoirning she’rga ko‘chgan sub’ektiv kechinmalarida ko‘pchilikning xayolidan o‘tgan o‘y-fikrlar o‘z aksini topadi. Abdulla Oripovning ko‘pgina she’rlari, to‘rtliklari falsafiy mazmundorligi jihatidan ulug‘ mutafakkir Umar Xayyom (1048–1122)ning ruboilariga o‘xshab ketadi.

Asarlaridagi teran falsafiy xulosalar chuqur umumlashmaga asoslangani ham Abdulla Oripov o‘zbek she’riyatini yangi bosqichga ko‘targanini bildiradi. Hayot hodisalarini badiiy tadqiq etish, ularga har tomonlama yondashib, kutilmagan teran umumlashma falsafiy xulosa taqdim etish donishmand shoir she’riyatining asosiy xususiyati bo‘lib ko‘rinadi. Shoir she’rlarida hasrat, zorlanish hissining bo‘rtib turishi esa u hayot hodisalariga yuksak ideallardan turib qarashi, mavjud ijtimoiy turmushdan qoniqmasligi, ba’zi odamlarni inson deb atamoq qiyinligi, ayrim kishilarning xulqi, tabiatida xudbinlik, manfaatparastlik hukmronligini ko‘rib bilib turganidan kelib chiqadi. Abdulla Oripov she’rlarida odam va olam to‘g‘risidagi o‘ylarini bayon qilar ekan, she’r so‘ngida e’tibor qaratilgan hodisaga munosabatini kuchli ehtiros bilan ifoda etadi. Bu jihatdan u barcha qalamkashlarga ibrat bo‘la oladi, hamma shoirlardan oldinda yuradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abdulla Oripov. Tanlangan asarlar. 1-qism. Toshkent-2001. G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti.
2. Abdulla Oripov. Hikmat sadolari. 1993. Fan
3. Oripov A. Tanlangan asarlar. To'rt jildlik. Birinchi jild. She'rlar va dostonlar. – T.: G'ulom nom. adab. va san'at nashr., 2000.
4. Azim U. Vatanni sevmoqni o'rgatgan shoir. //o'zbek adabiyoti va san'ati. 2001 yil, 23 mart.
5. O'zbek adabiyoti. o'n birinchi sinf uchun. Darslik majmua. –T.: o'qituvchi, 1993.
6. Adabiyot. Majmua (Akademik litseylarning III bosqich o'quvchilari uchun). – Toshkent. 'Cho'lpon', 2007.